

**“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talaba yigitlari o‘rtasida joriy yilning 13-sentabr kuni sportning voleybol turi bo‘yicha “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida universitet saralash musobaqalari bo‘lib o‘tdi. Musobaqada 150 nafardan ortiq sportchi yoshlar ishtirok etdi.



Bahslar ko‘tarinki ruhda davom etdi. Bahslar yakunida natijalar quyidagicha bo‘ldi:

1-o‘rin – Ingliz filologiyasi fakulteti

2-o‘rin – Sharq filologiyasi fakulteti

3-o‘rin – Ingliz tili 3-fakulteti

Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar. “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining Toshkent shahar hududiy saralash bosqichiga terma jamoa shakllantirib olindi.



Talaba qizlar o‘rtasida 14-sentabr kuni sportning voleybol turi bo‘yicha “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida universitet saralash musobaqalari bo‘lib o‘tdi. Musobaqada 150 nafardan ortiq sportchi yoshlar ishtirok etdi.



Yakunda natijalar quyidagicha tus oldi:

1-o‘rin – Tarjimonlik fakulteti

2-o‘rin – Sharq filologiyasi fakulteti

3-o‘rin – Ingliz tili 3-fakulteti

Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

Joriy yilning 13-14-sentabr kunlari talaba yigitlari o‘rtasida sportning futbol turi bo‘yicha “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida universitet saralash musobaqalari bo‘lib o‘tdi. Musobaqada 300 nafardan ortiq sportchi yoshlar ishtirok etdi.

Bo‘limlar o‘rtalarida jamoalar murabbiylari kerakli ko‘rsatmalar berib borishdi. O‘yinni kuzatib borgan yosh avlod sportchilarga havas qilib keyingi o‘yinlarda albatta fakultetlari sharafini himoya qilishni dillariga tugib qo‘yishdi.



O‘tkazilgan bellashuvlar qizg‘in va murosasiz ruhda o‘tib, bellashuvlar yakuni bo‘yicha quyidagi natijalar qayd qilindi:


1-o‘rin – Ingliz filologiyasi fakultetining Kechki ta‘lim jamoasi;

2-o‘rin – Ingliz tili 1-fakulteti 1-jamoasi;

3-o‘rin – Ingliz tili 1-fakulteti 2-jamoasi.

Musobaqa yakunida gʻolib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovgʻalar bilan taqdirlandilar. “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining Toshkent shahar hududiy saralash bosqichiga terma jamoa shakllantirib olindi.

Joriy yilning 3-4-oktabr kunlari universitet talabalari oʻrtasida yengil atletika sport turi boʻyicha “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida universitet saralash bosqichi boʻlib oʻtdi. Ushbu sport musobaqalarda talaba yigitlardan 50 nafardan ortiq, talaba qizlardan esa 40 nafardan ortiq sportchi yoshlar ishtirok etishdi.



Musobaqa nizomiga koʻra, talabalar yengil atletikaning estafeta bahslarida oʻz imkoniyatlarini sinab koʻrishdi.



Musobaqa yakunida gʻolib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovgʻalar bilan taqdirlandilar. 1-oʻrinni egallagan juftliklar “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining Toshkent shahar hududiy saralash bosqichiga yoʻllanmani qoʻlga kiritdi.

Joriy yilning 2-oktabr kuni sportning stol tennisi turi boʻyicha “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida universitet saralash musobaqalari boʻlib oʻtdi. Musobaqada 200 nafardan ortiq sportchi yoshlar ishtirok etdi. Unda talaba yigitlar va qizlar oʻz kuch va mahoratlarini namoyish etib shaxsiy birinchilik uchun kurashdilar.



Bahslar ko‘tarinki ruhda davom etdi. Bahslar yakunida natijalar quyidagicha bo‘ldi:

Talaba yigitlar:

1-o‘rin – Nurpulatov Zafarjon (Ingliz tili 3-fakulteti)

2-o‘rin – Mengaliyev Xudoyberdi (Ingliz tili 3-fakulteti)

3-o‘rin – Eshtemirov Akbar (Tarjimonlik fakulteti)

Talaba qizlar:

1-o‘rin – Ulug‘bekova Shaxnoza (Tarjimonlik fakulteti)

2-o‘rin – Sun Jayun (Rus filologiyasi fakulteti)

3-o‘rin – Safarova Sabrina (Rus filologiyasi fakulteti)



Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar. 1-o‘rinni egallagan sportchi “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining Toshkent shahar hududiy saralash bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

Joriy yilning 5-oktabr kuni sportning stritbol turi bo‘yicha “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida universitet saralash musobaqalari bo‘lib o‘tdi. Musobaqada 100 nafardan ortiq sportchi yoshlar ishtirok etdi.



Ushbu sport tadbirida universitetimiz fakultetlari talaba yoshlari g‘oliblik uchun qizg‘in bahslarga kirishdilar. Har bir jamoa tarkibidagi talaba sportchilar o‘z fakultetlari sharafini munosib himoya qilishdi va o‘zlarining bor kuch va mahoratlarini namoyon etishdi. Bahslar yakunida natijalar quyidagicha bo‘ldi:

1-o‘rin – Ingliz tili 1-fakulteti

2-o‘rin – Ingliz tili 2-fakulteti

3-o‘rin – Rus filologiyasi fakulteti

Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar. “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining Toshkent shahar hududiy saralash bosqichiga terma jamoa shakllantirib olindi.

Talaba qizlar o'rtasida joriy yilning 7-oktabr kuni sportning stritbol turi bo'yicha "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida universitet saralash musobaqalari bo'lib o'tdi. Musobaqada 100 nafardan ortiq sportchi yoshlar ishtirok etdi.



Yakunda natijalar quyidagicha bo'ldi:

1-o'rin – Rus filologiyasi fakulteti;

2-o'rin – Ingliz filologiyasi fakulteti;

3-o'rin – Tarjimonlik fakulteti.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar. "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalarining Toshkent shahar hududiy saralash bosqichiga terma jamoa shakllantirib olindi.